
Sektor rahbarlari “Farg‘ona naslli parranda” MCHJdagi yangi loyihalar bilan tanishdi

Qo‘sh tepa tumani hokimi A.Abdullayev tuman sektorlari rahbarlari bilan birgalikda “Farg‘ona naslli parranda” MCHJda bo‘lib, korxonadagi ish jarayoni va yangi loyihalar bilan tanishdi.

“Xumdon” MFY hududida faoliyat yuritayotgan “Farg‘ona naslli parranda” MCHJ tuxum yetishtirishga ixtisoslashgan tadbirkorlik korxonasi. N.Yo‘ldoshev rahbarlik qilayotgan ushbu korxonada 2008-yil tashkil topgan bo‘lib, asosan aholiga sifatli tuxum mahsulotlarini yetkazib berish bilan shug‘ullanadi. Hozirgi kunda jamiyatda tuxum beruvchi 250 ming dona parrandalar parvarish qilinmoqda. Korxonaning bir kunlik quvvati 200 ming dona sifatli tuxum mahsulotlari ishlab chiqaradi. Parranda syexlariga Turkiya davlatidan keltirilgan avtomatlashgan tovuq qafaslari o‘rnatilgan. Ta‘kidlash joiz, mazkur qafaslarda boqilayotgan parrandalarga ozuqa berish va tuxumlarni yig‘ib olish inson omilisiz kompyuterlashgan dastur yordamida amalga oshiriladi.

Tadbirkor N.Yo‘ldoshevning ta‘kidlashicha, korxonada parrandalarni Rossiya federatsiyasi Sverdlovsk viloyatining parrandachilik fermasidan “Supernik” va “Koral” zotli parrandalarining tuxumlari olib kelinib inkubatorlarda ochirilib parvarish qilinadi. Bu zotlarning afzalligi tuxumchilikka moslashganligi va mahsuldorligi bilan boshqa parrandalardan ajralib turadi.

Xo‘jalikda 60 nafar ishchi xodim ish bilan ta‘minlangan. Ularning yaxshi mehnat qilib, yaxshi dam olishlari uchun barcha sharoitlar tashkil etilgan.

Tashrif davomida tuman hokimi tomonidan korxonada faoliyatini yanada jonlantirish, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish zarurligi ta‘kidlandi.

2025-01-23 15:56:32